

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

KURS ISHI

MAVZU: Iroda psixologiyasi

Bajardi:

Xalimjonova Nigora

Ilmiy raxbar:

p.f.n T. G. Suleymanova

Andijon 2015

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. PSIXOLOGIYA FANIDA IRODA KATEGORIYASI

1.1 Iroda to'g'risida umumiy tushuncha.

1.2 O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'limotida
iroda muammosi

II BOB. IRODANING IJTIMOIIY TABIATI VA XUSUSIYATLARI

3.1 Iroda va o'zligini anglash

3.2. Irodani o'rganishning yangi qirralari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasai prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Asarida "Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. SHuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo'lidan kelganicha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi"¹. Deb ta'kidlaganlar

SHuningdek, Prezidentimiz o'z fikrlarini yanada rivojlantirib mazkur asarlarida yana shunday yozadilar: "Bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin"².

Psixologiya fanidagi irodaga taalluqli ta'riflarni umumlashtirgan holda uni mana bunday shaklda tavsiflash mumkin: "Iroda – bu shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati, xulq-atvori va muomalasini ongli ravishda tashkil qilishi, o'zgartirishlar kiritishi hamda o'zini o'zi boshqarishi demakdir. Iroda – bu shaxs faoliyati, muomalasining alohida shakli, sub'ekt xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilanadigan o'ziga xos turidir. Iroda tabiat, jamiyat, shaxs kamoloti qonuniyatlarini egallab oladigan va shu tariqa ularni o'z ehtiyojlariga ko'ra o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladigan shaxsning mehnat, o'yin, o'quv faoliyatida, muomala jarayonida, xulq-atvorida paydo bo'ladi".

O'smirlar xarakterning irodaviy xususiyatlarini shakllantirish muammosining dolzarbligi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu muammo mamlakatimizning Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, Oliy Majlis sessiyalarida va psixologiyaning sohasiga oid adabiyotlarda ko'p marta yoritilgan. Prezidentimiz o'zining

¹Islom Karimov: "Юксак маънавият – енгилмас куч". – Тошкент, "Маънавият", 2008, 123-бет.

²Уша асар, 126-127-бетлар.

«O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» va «O'zbekiston yangilanish va taraqqiyot yo'lida» nomli asarlarida ko'rsatib o'tganidek, O'zbekiston Respublikasi kishilarining ruhiyatini shakllantirishga jiddiy ta'sir qiladigan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda

Mazkur nuqtai nazardan har bir o'quvchida shaxs fazilatlarini shakllantirish jarayoniga, ayniqsa, uning irodaviy sifatlarni tarkib toptirishga jiddiy e'tibor qaratish orqaligina ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlash mumkin.

I BOB. PSIXOLOGIYA FANIDA IRODA KATEGORIYASI

1.1IRODA TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Psixologik ma'lumotlar talqiniga qaraganda, iroda o'zaro uzviy bog'liq ikkita vazifalarning – undovchi va tormoz qiluvchi funktsiyalarning bajarilishini ta'minlaydi va ularning vujudga kelishida o'zini namoyon qiladi.

Iroda – arabcha xohish, istak, maqsad degan ma'noni bildiradi. U shaxsning ma'lum maqsadni amalga oshirish yo'lidagi o'z xatti-harakatlarini (faoliyatda, muomalada, xulq-atvorda) ongli ravishda yo'naltirib turish, shu yo'ldagi qat'iyatliligi, mavjud to'siqlarni yenga olishga qodir bo'lgan psixologik qobiliyatidir. Iroda inson faoliyati, muomalasi va xulq-atvorining muhim xususiyati, uning turmush mazmunini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Irodasi mustahkam, kuchli odamda maqsad bilan faoliyat, xulq-atvor izchilligi kuzatiladi. SHaxs oldiga

qo'yilgan maqsadga erishishga nisbatan ishonch tuyg'usi irodaning kuch-quvvati va bosh mezonidir. Zero, qat'iy ishonch maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga ham jismonan, ham ruhan asos yaratadi. Falsafa va psixologiya fanlarida turlicha ta'limotlar mavjudligi sababli irodani Ollohga va shaxsga taalluqli deb ham talqin qiladilar. Xuddi shu bois, Olloh irodasi va bandaning irodasi degan so'z birikmalari, tushunchalar vujudga kelgan. Ayrim ta'limotlarda Olloh irodasi tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarining o'ziga xos me'yori va muvozanatini belgilovchi kuch sifatida tavsiflanadi. Ammo har bir jamiyat taraqqiyoti, uning ilg'or g'oyalarini turmushda amalga oshirish ko'p jihatdan mazkur jamiyat a'zolarining irodasiga bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Ilmiy falsafiy va psixologik nuqtai nazardan, xalq va millat irodasini shakllantirishga ajdodlarimiz qadimdan muhim e'tibor qaratganlar. Hamisha iroda bilan e'tiqod uyg'unlikda tavsif qilingan. Chunki bu ikki tushuncha muayyan qarashlar, ta'limotlar e'tiqodlarning g'oyaviy-ma'naviy asosi hisoblanadi. Ma'lumki, e'tiqodning zaif yoki mustahkamligi, umuminsoniy va milliy manfaatlarga mos kelishi (mutanosibligi) yoki mos kelmasligi (nomutanosibligi) ham irodaning mustahkam, puxta, kuchli shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Falsafa va psixologiya fanlarida aksariyat hollarda "iroda erkinligi" tushunchasi qo'llaniladi. Iroda erkinligi – insonning biror ishni, faoliyatni bajarishga qaratilgan, yo'naltirilgan ongli intilishi hisoblanadi. Falsafa va psixologiyada ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida iroda erkinligi definitatsi atrofida, dunyoviy va diniy ta'limotlar o'rtasida ana shu asosda bahs-munozara hukm surib kelmoqda. Masalan, fatalizm namoyandalari shaxsning barcha xatti-harakatlarini faqat tashqi kuchlar belgilaydi, deb ta'kidlasalar, volyuntarizm ta'limotining vakillari esa odam xatti-harakatlarida mutlaq erkin, bunday erkinlik esa tashqi kuchlarga hech qanday bog'liq emas, degan xulosaviy qarashni olg'a suradilar. Diniy ta'limotlarda esa, umuman erkni, shu jumladan, iroda erkini Xudo belgilaydi, odamning qismati, taqdiri Yaratuvchining irodasiga bog'liq, u oldindan belgilab qo'yilgan, deyiladi. SHuningdek, ayrim diniy ta'limotlarda boshqacharoq talqin ham mavjud bo'lib, ularda inson iroda erkinligiga egadir, u o'z gunohlari uchun javobgardir, degan g'oya ilgari suriladi.

Iroda -sub'ektning ichki sharoitlari (ehtiyoblari, qiziqishlari, xohishlari, istaklari, mayllari, bilimlari va boshqalar) orqali aks ettirilgan ob'ektiv olam uning turli maqsadlarni o'z oldiga qo'yish, qaror qabul qilish, erkin harakatni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu borada fikr yuritilganda, odamning istaklariga binoan tanlab olinadigan iroda emas, balki ob'ektiv zaruriyatga muvofiq adekvat tarzda saralangan irodagina erkindir.

Har qanday harakat yoki faoliyatning irodaviy xususiyati shundan iboratki, muayyan shaxs aynan iroda orqali mavqega erishish uchun tashqi yoki ichki to'siqlarni, qiyinchiliklarni yengib o'tish lozim. Kuchli irodali insonning dastlabki omili ma'lum maqsadni oldiga qo'yib, avvalo

uni anglab yetishdan, faoliyatni (ish-amallarni) amalga oshirish maqsadga muvofiq omilkor usullarni tanlab olishdan iborat. Muayyan bir ishning iroda erkinligi asosida gavdalanishi uchun hal qiluvchi narsa ushbu ish yuzasidan qabul qilingan qarorning bajarilishidir. Iroda erkinligini insonga tabiat baxsh etgan emas, balki u ijtimoiy tajribalarda, ijtimoiylashuv jarayonida sub'ekt tomonidan o'zlashtiriladi.

Psixologiya fanida yaratilgan qonuniyatlarga asoslangan holda, nazariyalar, kontseptsiyalar mohiyatiga suyanib iroda kategoriyasiga taalluqli motivatsion, regulyativ, vaqt erkinligi kabi yondashuvlar, mexanizmlar, ixtiyorsiz (shuursiz) va ixtiyoriy (shuurli) xatti-harakatlar, qaror qilish shakllari, xususiyatlari; shaxsning shakllanishida irodaviy sifatlarning roli; faoliyat, xulq-atvor, muomala muvaffaqiyatini ta'minlashda iroda funktsiyasining o'ziga xosligi; iroda to'g'risidagi buyuk ajdodlarimizning ta'limotlari, masalan, tasavvuf ta'limotining iroda tarkib topishidagi ahamiyati mushohadasi; komil inson nazariyasi; Prezident Islom Karimov asarlaridagi barkamol shaxs to'g'risidagi g'oyalar; davlatimizning "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", ta'lim to'g'risida "Qonun" hujjatlari; "Men" kontseptsiyasi – o'zini o'zi namoyon etish hamda boshqarish (regulyatsiya) imkoniyati ekanligi, ushbu monografiyamiz metodologiyasi va yoki izlanish negizi funktsiyasini bajaradi.

SHuningdek, psixologiyada irodaga ko'pfunksional kategoriya sifatida yangicha yondashuv, original kontseptsianing mohiyati yoritib berilganligi; irodani shakllanish jarayonining ichki va tashqi omillari tavsifi yaratilganligi; iroda tuzilishi (ierarxiyasi) yuzasidan o'ziga xos mulohazalar, mushohadalar bildirilganligi; irodaga oid yondashuvlar tahlili muayyan belgi va alomatlarga binoan umumlashtirilganligi; irodaning patologik holatlari eksperimental materiallar asosida izohlanganligi; iroda shakllanishining gender munosabatlari, jabhalari talqin qilinganligi; iroda shakllanishida psixikaning shakllari (faoliyat, fe'l-atvor, muomala) o'ziga xos ta'sirchan, harakatlantiruvchi kuch ekanligi dalillanganligi; atrof-muhit, ichki va tashqi omillarni shakllanish jarayonidagi roli qiyosiy tahlil qilinganligi va boshqalar ushbu monografiyaning ilmiy-nazariy yangiligi hisoblanadi.

Ijtimoiy turmushda shaxsning irodaviy faoliyati (o'ziga xos tuzilishga ega bo'lganligi tufayli) o'z oldiga qo'ygan anglangan, ya'ni inson o'zi tushungan maqsadlarni bajarishdan, amalga oshirishdan, ro'yobga chiqarishdan iborat sodda shakldagi (oddiy) harakatlarning shunchaki majmuasidan tuzilgan emas, albatta. Xuddi shu boisdan zo'r berishni (ruhiy jihatdan) taqozo, talab etmaydigan ish-harakatlari (masalan, shkafdan choynakni olish, sochiqni qoziqqa ilish, kosani tokchaga qo'yish va boshqalar) bilan irodaviy faoliyat tarkiblari o'rtasida ham miqdor, ham sifat jihatdan keskin farq mavjud. Odamning irodaviy faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda shaxs o'z oldiga qo'ygan va uning uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadlariga o'zi uchun kamroq qiymatga ega bo'lgan xatti-harakat motivlarini bo'ysundiradi.

Qolaversa, ustuvor (etakchi, dominant) motivlar (ichki turtkilar) qo'shimcha ko'makchi motivlarni muayyan yo'nalishga yo'naltirib, ularni umumiy (yaxlit) maqsadga xizmat qildiradi.

Iroda paydo bo'lishining bosh omili – inson tomonidan faoliyat tarkiblarining, irodaviy harakatlarning tizimli tarzda tatbiq etilishi bunday ish-harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi, uyg'unlashuvchi shaxsning faolligidir. Irodaviy faoliyat odam tomonidan keng ko'lamda chuqur anglanilgan, o'zlashtirilgan, egallangan ruhiy jarayonlarni amalga oshirish tatbiqiy, xususiyati bo'yicha irodaviy zo'r berishni talab qiladigan aqliy-intellektual amallarni taqozo etadi. Bunday aqliy-intellektual, ijodiy (kreativ) amallar favquloddagi vaziyatni baholash, kelgusida amaliyotga tatbiq qilishga mo'ljallangan harakatlar uchun vositalar, usullar, operatsiyalar tanlash, maqsad ko'zlash va unga erishishning pedagogik-psixologik yo'l-yo'riqlarini saralash, ulardan foydalanish uchun muayyan qaror qabul qilish, ijro etish kabilar hisoblanadi. Bizningcha, aqliy, ijodiy, omilkor amallarning barchasi irodaviy faoliyatning operatsional, texnologik tomoni, deb baholanish maqsadga muvofiq.

Irodaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) irodaviy harakatlarni shaxs doimo ularning sub'ekti sifatida amalga oshiradi; 2) irodaviy akt, harakat shaxs tomonidan to'la-to'kis mas'ullikni olgan ish, amal, akt sifatida ichdan (ruhiy dunyosida) kechiriladi;

3) irodaviy faoliyat tufayli inson ko'p jihatdan o'zini o'zi shaxs sifatida anglaydi (o'zlikni anglash bosqichi yuzaga keladi);

4) irodaviy faoliyat ta'sirida shaxs o'zining hayot yo'lini hamda taqdirini o'zi belgilashi shart ekanligini tushunib yetadi.

Iroda funktsiyalari

Faollashtiruvchi

Tormozlovchi

Irodaning ushbu funktsiyalari birgalikda, uyg'unlikda hukm sursagina, muvofiqlik yuzaga kelishi mumkin, faqat ana shundagina shaxsni o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni, qiyinchiliklarni yengishni kafolatlashi to'g'risida mulohaza yuritisa bo'ladi.

.

1.2 O'RTA OSIYO MUTAFFAKIRLARI SHAXSNING IRODAVIY SIFATLARI XAQIDA

Muhammad Rizo Ogahiy o'tmishdagi olimlarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlaridan foydalanib, o'zining shaxsiy tajribasiga tayanib, ijtimoiy-siyosiy hamda pedagogik masalalarni hal etishga harakat qiladi. U inson xarakteri to'g'risida fikr yuritir ekan, uning ijtimoiy mavjudot ekanligini, qolaversa, u faqatgina jamiyatda, jamoada ijtimoiy munosabatlarning natijasida

kamol topishini uqtiradi

Ogahiy yoshlarning ilm olishi xarakterining ijobiy xususiyatlarini shakllantirishning omili ekanligini tushuntiradi.

Muallif insonning umumiy tushunchalari mohiyatini tushunishi faqat aqliy rivojlanishi bilan ro'y beradi, deb hisoblaydi hamda aql rivojlanishi natijasida inson tashqi dunyoni va ijtimoiy hodisalarni bilishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

Mutafakkirlar ta'limotini o'rganish orqali pedagogika kolleji o'quvchilari xarakterida intellektual va irodaviy xususiyatlarni shakllantirish mumkin. Ularning ichida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida komil inson va ezgulik, adolat, ma'rifat va odob-axloq haqidagi g'oyalar Kuntug'di, Oyto'ldi, O'g'dulmish, O'zg'urmish obrazlari orqali gavdalangan .

Axmad Yugnakiy "Hibatul haqoyiq" dostonida ilmni qadrlaydi, ilmni kishiga baxt-saodat yo'llarini ochuvchi omil sifatida tasvirlaydi, rostgo'ylik, to'g'ri so'zlikni olqishlaydi, johillik, chaqimchilik, laqmalikni inson boshiga g'am-g'ussa keltiruvchi illat sifatida qoralaydi. Uning asarlaridagi ilm o'rganish, o'zini tutib, johillik qilmaslik haqidagi fikrlar shaxsda intellekt va irodani shakllantirishga undashni anglatadi. Uningcha, aqliy va irodaviy sifatli kishilar ilm-fanga intiladi va boshqa odamlar o'rtasida o'zini tutib, ijobiy xarakter xususiyatlarini ko'rsatadi.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida yaxshilik va yomonlik to'g'risida fikr bildirib, yaxshilik baxt-saodat keltirishini, yomonlik esa kishiga baxt-saodat keltirmasligini aytadi .

Forobiy talqinicha, Fozil inson tushunchasi komil inson tushunchasiga sinonim bo'lib, shaxs xarakterida intellektual-irodaviy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Chunki fozil odamlarda bu xususiyatlar shakllanishi davr taqozosidir.

Abu Nasr al-Forobiy inson shaxsi shakllanishi, xakteri rivojlanishi, inson kamoloti masalasi ustida Bitiruv malakaviy ishlar olib boradi . «Insonga, - deydi al-Forobiy, - uning oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishiga yordam beradigan kuchlari, qobiliyatlari va o'rgangan harakatlari inson yaxshiligidir. Insonga uning oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishiga halaqit beruvchi kuchlari, qobiliyatlari va o'rgangan ixtiyoriy harakatlari inson yomonligidir».

Al-Forobiy nazariy bilimlarni o'rganishga kirishgan har bir insonning axloq-odobi ham yuksak darajada pok bo'lishi kerakligini ta'kidlab, bunga xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda tozalash orqali erishish mumkin. Xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo'lini tutib olishga boshlovchi nafsni, jonini, ruhini tozalash zarur ekanligini uqtiradi.

Abu Rayhon Beruniyning ta'lim haqidagi fikrlarini o'rganish, eng avvalo, uni ilm olish va bilishdagi ta'lim uzviyligi, o'qish, o'qitish, o'quv qurollari, yozuv belgilari haqida aytgan fikrlari yuksak did mahsuli ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Beruniy jahon fanida ham birinchilardan bo'lib, qiyosiy tarbiyaga oid fikrlar bildirgan.

Beruniy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini asosan "Qadimgi xalqlarning yodgorliklari", "Hindiston", "Mineralogiya" kabi asarlarida bayon etgan. SHuningdek, Beruniy ta'lim-tarbiyaga o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, mashg'ulotlar davomida ularning zerikib qolmasligi uchun bilim berishning turli yo'llari, shakl va uslublari ustida shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas boshqa bir bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi", deb behuda aytmagan

U insonda doimo intellektual sifatlar yangiliklarni bilishga qiziqish mavjudligini ta'kidlaydi. Beruniy mazkur jarayonda inson xarakterining intellektual-irodaviy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishning shart-sharoiti va mexanizmlarini yaqqol ko'rsatib beradi.

Kaykovus "Qobusnoma"da dunyoda insonning bilmagan narsasi yo'qligini ta'kidlab, uni tabiat olamida buyuk bir dunyo deb biladi va har bir narsani ongidan o'tkazuvchi qudratli aqlga, intellektga ega ekanligini ta'kidlaydi. Insonning zaruriy xususiyati haqida shunday fikrni uqtiradi: «Suqrot hakim degan ediki, hunardan yaxshiroq narsa yo'qdir, badxo'ylikdan yomonroq narsa yo'qdir». Kaykovus yoshlarni mard juvonmard bo'lishga undab, juvonmardlikni uch asosiy guruhga bo'lib: «biri – aytgan so'zingni o'zing bajarsang, ikkinchisi – to'g'rilikka ixlos qilsang, uchinchisi – xayrni ko'zda tutsang», - deydi va bu xislatning inson xakteri shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Kaykovusning fikrlari inson xarakterining ijobiy sifatlarini shakllantirish to'g'risida boradi. Bunda tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, mahsuldorlik, irodaviy sifatlar - o'zini tuta bilish, botirlik, matonatli bo'lish haqida mulohaza bildiriladi. Mazkur sifatlar inson xakterida shakllansa, u barkamol inson bo'lib yetishadi.

Axloqshunos Ar-Roziy kishilardagi manmanlikni qoralab, undan xalos bo'lish uchun ham boshqalar bilan o'zini taqqoslab ko'rishni maslahat beradi. Biroq inson o'zining ijobiy fazilatlarini ko'ra olmasligi va shu bois o'zini yerga urishi ham jiddiy nuqson. Ar-Roziy hasadgo'ylik, serjahlilik illatlari inson hayotida salbiy ahamiyat kasb etishidan odamlarni ogohlantiradi. Ayniqsa, yolg'onchilik shunday illatki, u odamni sharmanda qilib, boshqalarning unga nisbatan nafrat bilan munosabatda bo'lishiga, birodarlari ishonchining yo'qolishiga olib keladi.

Ar-Roziy befoyda, tushkunlikka tushiruvchi o'y-xayollardan uzoq bo'lishga shaxsni chaqiradi. Salbiy sabablar kishiga o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishiga xalaqit beradi. Dono odam esa vaqti-vaqti bilan dam olib, xursandchilik qilib, kayfiyatini ko'tarib turadi. Xafaqonlik kishi ruhini tushirib, uni umidsizlik sari yetaklaydi. Bunday kayfiyatdan qutilishi uchun kishi

sodir bo'lgan yoki kutilayotgan quvonchli voqea-hodisalarni ko'z oldiga keltirishi, o'zini ovutadigan bir faoliyat bilan shug'ullanishi joiz.

Al-Xorazmiy kishilarning xush axloqli, ijobiy sifatlar, fazilatlar sohibi bo'lishi tarafdori. Uning fikricha, har kim uz fe'lga yarasha hurmat-e'tibor qozonadi, yuksaklikka ko'tariladi. Boshqalarga yaxshilik qilish, sahiy, muruvvatli bo'lish barchaning vazifasi ekanligini uqtirib, alloma «Yaxshilik shon-shuhratga o'xshaydi. Boshqalar undan qancha xazar qilsalar-da, muruvvatli kishi shon-shuhrat topadi», - deydi.

Abu Bakr Ar-Roziy kabi al-Xorazmiy ham g'azablanish, xafagarchilik qanday noxush oqibatlarga olib kelishini aytadi: «G'azab hurmat-ehtiromni unutishga, xayrli ishlarni yo'qqa chiqarishga xizmat qiladi». Bunda inson xarakterining salbiy illatlari tanqid qilinadi va ijobiy sifatlar rivojlanishi komil inson shaxsi shakllanishining omili ekanligi dalillanadi.

Firdavsiy 30 yildan ortiqroq vaqt davomida yozgan «SHohnoma» asarida halol mehnat, axloqiy poklik, odil podshoh g'oyalari kuylanadi. Asarning «Rustam va Suhrob» qissasida Firdavsiyning axloqiy-ma'rifiy qarashlari mujassamlashgan.

Imom al-Buxoriy asarlarida inson xarakteriga ta'sir etuvchi ikkinchi vositadir, deb aytish mumkin Ibodat deganda faqatgina namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish va haj amallarini bajarishgina bo'lmasdan, balki sabr-toqatli bo'lish, nafsni tiyish, tozalikka rioya qilish va yomon illatlardan saqlanish nazarda tutiladi. Bu fikrlarning barchasi inson xarakterining irodaviy xususiyatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Ibn Sinoning nuqtai nazaricha, yaxshilik va yomonlik, lazzat va alam atamalari asosiy axloqiy kategoriyalar hisoblanadi. Asosiy axloqiy qadriyat adolat hisobalanadi. Ibn Sinoning qo'zg'atuvchilar haqidagi fikrlari qiziqarlidir. U qo'zg'ovchilarni uchta turga ajaratadi.

1.Instinktlar bilan paydo bo'ladigan hissiy qo'zg'ovchilar (jinsiy hirs, berilish, mazali ovqatga istak, chiroyli kiyimga istak).

2.G'azab va boshqa kuchli ma'naviy hislar bilan paydo bo'ladigan qo'zg'ovchilar (qo'rqish, ayta olmaslik, alam, nafrat, hasad, rashk).

3.Ongli qo'zg'ovchilar (jiddiylik, o'zini tuta bilsh, adolatlilik, donishmandlik).

Ongli qo'zg'ovchilar bilan bog'langan insonning asosiy ijobiy sifatlariga Ibn Sino quyidagilarni, ya'ni o'zini tuta bilish, donishmandlik va botirlikni kiritadi. Bu uchta ijobiy sifat jamlanganda adolatlikni tashkil qiladi. Agar insonda shunday sifatlar mavjud bo'lsa, unda u o'zining instinktlarini jilovlab, o'zida yaxshilik boshlanishini mustahkamlaydi, shuning bilan haqiqiy-ma'naviy lazzatlanish tus oladi. Ong esa narsalarni aohida ko'radi, - deb yozadi Ibn Sino. Qanday bo'lsa shundayligicha yoki hech ham ko'rmaydi. Hissiyot esa, qo'pol va o'zgargan holda idrok qiladi, ong esa o'zgarmagan aks etishni idrok qiladi. Ong yaxshilik, tartiblilik va baxt nimadan kelib chiqishini ko'radi. Bu o'rinda aniq ko'rinib turibdiki, Ibn Sino axloqning va

axloqiy tarbiyaning asosiy muammolariga ratsional yondashgan. Tarbiya hammadan oldin insonda predmet va hodisalarga ongli yondashuvni shakllantirish kerak, chunki aynan ong yaxshilik, ko'ngilchanlik, tartiblilik va butunligicha inson baxtining asosida yotadi.

II BOB. IRODANING IJTIMOIIY TABIATI VA XUSUSIYATLARI

2.1 IRODA VA O'ZLIGINI ANGLASH

Psixologik tahlillarga qaraganda, ijtimoiy turmushda taraqqiyotni keltirib chiqaruvchi omillar va printsiplar to'g'risidagi ta'limotlarga nisbatan munosabatlar o'zgarib borishi turlicha metodologik muammolarni yuzaga keltiradi. Bizningcha, har qaysi muammo taraqqiyotni amalga oshiruvchi, harakatlantiruvchi kuchning mohiyati va mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy turmushda tutgan o'rni, biosfera bilan noosfera aloqasi, ularda batartib (tekis harakat) va betartib (xaos, xaotik) harakatlanish ehtimoli mavjudligi haqidagi mulohazalar tobora avj olib bormoqda.

Zamonaviy psixologiyada uning moddiy asoslari yuzasidan fikr yuritilganda biosfera va noosferada harakatlar batartib amalga oshadi, buning natijasida qonuniyatlar voqelik, holat va hodisalarni bevosita boshqarib, ya'ni regulatsiya qiladi, deb tushuntiriladi. Biroq biosferada ham, noosferada ham betartib (xaos, xaotik) harakat hukm surishi mumkinligi to'g'risidagi omillarga, negadir e'tibor susaygan. Buning natijasida ob'ektiv va sub'ektiv sabablar oqibatni keltirib chiqarishi tan olingan, lekin oqibat sababning yuksak motivi sifatida ro'yobga chiqishi psixologiyaning tadqiqot predmetiga, hatto kiritilmagan. Fazoviy aloqalar (psixosfera) nafaqat stixiyalarni yuzaga keltirish bilan tavsiflanadi, balki tabiatga, insoniyatga ijobiy ta'sir etuvchi zarrachalar, moddalar, nurlarni yoyish imkoniyatiga ega. Yer kurrasiga ba'zi bir kasalliklar (infark, insult, rak) tarqalishining bosh omili hisoblanadi, ikkinchi tomondan, miya, tana a'zolari tarkibiga mos zarrachalarning idrok

maydoniga muvaqqat to'planishi tufayli tez fikrlash, ilhomlanish vujudga kelishini dalillash mumkin bo'ladi. Insondagi moddiy miya bilan sub'ektning idrok maydonidagi "sun'iy miya" o'rtasida aloqa vujudga keladi. Ikkiyoqlama tutash ta'sir natijasida bilish jarayonlarining mahsuldorligi, samaradorligi ortadi. Bizningcha, xuddi shu voqelik, hodisa intuitsiyaning moddiy asosi hisoblanadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgandan idrok maydonidagi "sun'iy miya" zarrachalari havoga tarqaladi, o'z-o'zidan ikkinchi stimulyator o'z funksiyasini yakunlaydi. Mazkur psixologik hodisaning takrorlanishi ijod, ilhom kuchayishiga olib keladi, xuddi shu bois, uni tafakkur mahsuldorligi mexanizmi, deb atash mumkin.

Olamni larzaga keltirayotgan stixiyalar to'g'risida ham manfiy fikr bilan birga, xaotik harakatlarni ma'lum yo'nalishda, muayyan fazoda va vaqtda muvaqqat hukm surishi ehtimolini izohlash mumkin. Ba'zi bir favquloddagi hodisalar, holatlar, kechinmalar, omadsizliklar kabi voqelikni tushuntirishda ikkiyoqlama stimulyator tarkibini dadillik, xayolparishonlik, frustratsiya, eyforiya qamrab olishi, bir tomondan, insonda quvonch tuyg'usini, ikkinchi tomondan, omadsizlik, baxtsizlikni keltiradi. Sun'iy kuchaytirgich yoki susaytirgich ta'sirini ilmiy asosda tushuntirish umumiy psixologiya fani javob bera olmaydigan hodisalar qariyb yo'q ekanligini bildiradi.

Psixologiyada ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi mutanosiblik taraqqiyotni belgilaydi, degan g'oya fanning metodologik asosi sifatida bir necha yillar to'liq tan olinib kelindi. Bizningcha, o'zaro muvofiqlik taraqqiyotni emas, balki barqarorlikni (stabillashuvni) keltirib chiqaradi, xolos. Binobarin, barqarorlashuv rivojlanishni bildirib kelmasdan, balki uning bir tekis, maromida kechayotganligini anglatadi. SHuning uchun bu psixologik hodisa umumiy taraqqiyotni emas, balki mo'l-ko'lchilikni, serobchilikni bildiradi. Ikkinchi tomondan, ishchilar sinfiga berilgan yuksak ijtimoiy-psixologik baho ham taraqqiyotning harakatlantiruvchisi (ya'ni mexanizmi) to'g'risidagi masalaga adekvat javob bera olmaydi. Darhaqiqat, ishchilar sinfi uyushgan, ilg'or bo'lishiga qaramasdan, bu makro guruh ijtimoiy hayotda mo'l-ko'lchilikni yaratish bilan cheklangandir. Lekin bu sinf yangilikni vujudga keltirish, kashfiyot qilish bilan qariyb shug'ullangan emas, shuning uchun qator zaifliklar guruhiy xususiyatdir. Bizningcha, taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi asosiy omil – bu mikro yoki mize guruhdagi shaxslar (olimlar, salohiyatli davlat arboblari) bo'lib, biosfera va noosferaning insoniyat uchun noma'lum, yangi qirralarini ochishga qodirdirlar. Psixologiya fanida inson omili uzluksiz ravishda ta'kidlanib kelinishiga qaramasdan, u taraqqiyotning harakatlantiruvchisi ekanligi batamom tan olinmagan. Xuddi shu boisdan individuallik va umumiylik ("Biz" va "Men" munosabati) ustuvor, birlamchi voqelik sifatida talqin qilingan, xolos.

Hozirgi davrda inson omili komil inson ta'limotining bosh maqsadiga apylangani uchun uning xususiyatlari, fazilatlar, xislatlari, xosiyatlari, sifat, ichki imkoniyatlari, gender farqlari, iste'dod

alamatlari odamda qancha erta ro'yobga chiqarilsa, taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi super shaxslarni shakllantirish shunchalik tezlashadi. Psixolog E.G'ozievning kontseptsiyasiga binoan, inson kamoloti quyidagi bosqichlarni bosib o'tishi joiz: murtaklik – odam – inson – shaxs – sub'ekt – komil inson. Olimning ta'kidlashicha, murtaklik – bu embrional davr, odam (falsafiy individ), inson (qatorga qo'shilish davri), shaxs (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy mezon bo'yicha), sub'ekt (shaxsiy g'oya, maqsadga intilish, uzluksiz motivlar kurashi xususiyat darajasida ekanligi), komil inson (jismoniy, axloqiy, aqliy yuksak ko'rsatkichlari; o'ta onglilik, antitsipatsiya, refleksiya; “Men” bilan “Biz”ning o'rin almashishi qat'iyligi va boshqalar) o'ziga xoslikka ega bo'lgan betakror, alloma, daho zot ifodasidir. Bizningcha, inson komillik sari qancha tezkor harakat qilsa, u kamolotni shunchalik ertaroq egallaydi, natijada taraqqiyotni jadallashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi. SHuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, komillik shaxs qurshab turgan voqelikni adekvat aks ettirish imkoniyatida, faol, mustaqil faoliyatida, psixika shakllari takomillashib borishida, individuallikni namoyon etish orqali, rivojlanishdan ilgarilab ketish natijasida asta-sekin shakllana boradi. Ko'p funktsiyali ijtimoiy turmushda faoliyat, muomala, xulq-atvor maqsadga muvofiq takomillashishida irodaviy sifatlar, xatti-harakatlar, irodaviy zo'r berish hal qiluvchi psixologik ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya fanida o'zini o'zi anglash bilan iroda o'rtasidagi munosabat XX asrda ham XXI asrda ham psixologlarning diqqat markazida turgan. CHunki har ikkala umumpsixologik tushunchalar uzluksiz ravishda bir-birini taqozo qiladi, o'zaro munosabatlar esa ikkiyoqlama tarzda amalga oshib turadi. SHuni eslash o'rinliki, har ikkala definitsa ong bilan bevosita bog'liq holda vujudga keladi, o'zaro ta'sir natijasida faoliyatda, xulq-atvorda va muomala jarayonida takomillashadi. Anglanmagan hodisaga munosabat bildirish qanchalik murakkab psixologik voqelik bo'lsa, diqqatni ob'ektga to'plash, masala yechimini topish uchun omilkor xatti-harakatlarni tanlash ham xuddi shunday kognitiv qonuniyatlarni, mexanizmlarni, zaruriy sharoitlarni talab etadi. Ma'lumki, har xil mohiyatga, tuzilishga, negizga ega bo'lishdan qat'i nazar insondan zo'riqishni, jiddiylik, muammoli vaziyatni bartaraf etish strategiyasi va taktikasi ustida ijodiy fikr yuritishni maqsadga aylantiradi.

Psixologiya fanida o'zini o'zi anglashning psixologik mohiyatini talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish vujudga kelgan bo'lib, ular o'zaro qiyoslanganda bir-biridan katta farqqa ega. Birinchi yondashuv tavsifiga qaraganda, o'zini o'zi anglash – bu o'z yo'nalishini o'zgartirgan ongning aynan o'zidir. SHuning uchun u shaxs ongining maxsus ko'rinishidan boshqa narsa emas. Bu keng tarqalgan nazariya L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, Ye.V.SHoroxova, I.I.Chesnakova, V.V.Stolin ta'limotlarida hamda ularning shogirdlari ilmiy izlanishlarida tadqiq qilib kelingan. Mazkur muammoga ikkinchi yondashuvning asoschisi S.L.Rubinshteyn bo'lib, keyinchalik uning shogirdi K.A.Abul'xanova-Slavskayaning izlanishlarida ijodiy tarzda rivojlantirildi. S.L.Rubinshteynning fikricha, ong va o'zini o'zi anglash jismonan real hamda

haq-huquqqa ega (yuridik) shaxsga taalluqli xususiyatlardan biri bo'lib, ular uning turmushi va faoliyatini "qurol" sifatida ta'minlab turuvchi ruhiy jarayondir. Bizningcha, S.L.Rubinshteyn ta'limoti o'zini o'zi anglashning psixologik mohiyati yuzasidan adekvat ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Ta'limotga asoslanib, muammoni tadqiq qilish uning ilmiy-nazariy, amaliy-tatbiqiy jihatlarini ochishga xizmat qiladi.

Birinchi yondashuv talqiniga qaraganda, o'zini o'zi anglash hodisasi vujudga kelishining bosh sababi – bu inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat nomutanosibligi hisoblanadi. Inson muayyan jamiyatda, ijtimoiy muhitda istiqomat qilar ekan, odatda, shu muhit qonun-qoidalariga, tartib-intizomlariga rioya qilishga majbur. U ana shularning negizida faoliyatini, xulq-atvorini, shaxslararo munosabatini boshqaradi. O'z xulq-atvorini, faoliyatini, munosabatini boshqarish ularni yuzaga keltiruvchi ehtiyoj, xohish, motiv, mayl, maqsad, qiziqish kabilarni ham idora qilishdir. Bunday mazmundagi o'zini o'zi anglash va uning regulyatsiyasi ehtiyojning ongdagi ifodasini ham, o'zaro munosabatini ham tartibga solishni taqozo etadi. Hodisa paydo bo'lishining bosh sababi ham, yo'nalish ob'ekti ham ongdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, ongning ichki barqarorligi, barqarorlikning ichki muvofiqligini shakllantiradi. Ushbu ta'limot namoyandalari talqinida ongning ichki barqarorligini vujudga keltiruvchi tarkiblar yuzasidan olinadigan ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi. Bunday ma'lumotlarni shaxs o'zlashtirgandan keyin ular mazmunan har xilligi sababli qarama-qarshilikka uchraydi. O'zaro mutanosiblikni ta'minlash uchun odam ijtimoiy ongiga murojaat qiladi va shu yo'l bilan ma'nolar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etadi. SHuning uchun L.S.Vigotskiy o'zini o'zi anglash har xil ma'nolar o'rtasida birlikni vujudga keltirish jarayoni sifatida va o'zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo'ladi, deydi. A.N.Leont'ev talqinicha, individual ongning mohiyati bilan mazmuni o'rtasidagi ziddiyat o'zini o'zi anglashning sababchisidir. V.V.Stolinning uqtirishicha, o'zini o'zi anglashning negizida "Menlik"ning mazmunlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi. B.G.Anan'evning mulohazalariga qaraganda esa, o'zini o'zi anglashning vujudga kelishi omili – odamning individual xususiyatini, faoliyat sub'ektliligi, shaxslilik tarkib topishidagi notekislik va geteroxronlik. Uning mulohazasicha, o'zini o'zi anglash ana shu uchala xususiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta'minlab turadi.

SHunday qilib, birinchi yondashuvda o'zini o'zi anglash xulq-atvor va munosabatni belgilovchi hamda idora qiluvchi mustaqil sub'ektga aylanadi. Natijada inson tadqiqot markazidan uzoqlashadi, uning o'rnini ong va o'zini o'zi anglash egallaydi. Bizning farazimizcha, o'zini o'zi anglashni bunday tushunish uning psixologik mohiyatini to'liq yoritishga imkon bermaydi. Ehtimol u noadekvat xulosa chiqarishga, shoshilinch qaror qabul qilishga olib keladi.

Ikkinchi yondashuv namoyandasi S.L.Rubinshteyn ruhiy faoliyatning maxsus vaziyatdagi

ob'ektiv shart-sharoitlari sifatida odamlarning turmush (yashash) sharoiti yotadi, deb yozadi. Aks ettirishning sharti haqida gap ketganda, odamning turlicha namoyon bo'lishining umumiy shartlari ichidan xuddi mana shu in'ikos etish faoliyatining maxsus shartini ajratib olishimiz zarur bo'ladi, deb uqtiradi muallif. O'zini o'zi anglashning vujudga kelishini ta'minlovchi maxsus shartni aniqlash uning sub'ekti to'g'risidagi masalani hal qilishni, uning uchun yo'l-yo'riqlar, oqilona usullarga asoslanuvchi yechimni talab qiladi.

Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, shaxs o'zini o'zi anglashi uchun xuddi shu o'zini o'zi anglashning sub'ekti bo'lishi lozim. SHaxsda o'zini o'zi anglashga nisbatan ichki xohish va intilish sifatidagi ruhiy holatlar, hodisalar vujudga kelishi shart. Bu borada shunga o'xshash ruhiy holatlarning qachon va qay yo'sinda, qanday sharoitlarda namoyon bo'lishini aniqlash joiz. Bizningcha, bunday masalani ko'ndalang turishi o'zini o'zi anglashni tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixologik manbalar tahlilining ko'rsatishicha, S.L.Rubinshteyn tadqiqotining muhim shartlaridan biri o'zini o'zi anglashning sub'ekti to'g'risidagi masalani hal qilish hisoblanadi. Endi sub'ekt tushunchasining ichki mazmunini yoritish uchun biz K.A.Abul'xanova-Slavskayaning (S.L.Rubinshteyn shogirdi) sub'ekt to'g'risidagi yangicha mulohazalariga tayangan holda tahlil qilamiz. Muallifning fikricha, sub'ektlilik insonning u yoki bu ruhiy faoliyatidagi instantsional (lot. instantia bevosita yaqinlik) yoki substantSIONalligi (lot. substantia ichki mohiyat) bo'lmasdan, uning o'ziga xos sifat jihatdan tashkiliy holatdir. Bunday tashkiliy holat asosida u turmushning, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tariladi. Bunda sub'ektlilik inson kamolotini va yangi turmush tarzini vujudga keltiruvchi holat, degan ma'noni anglatadi, xolos. Inson o'zini o'zi anglashning sub'ekti deyilganida, uning o'zligini, "Men"ligini aniqlashning imkoniyati va sharti bo'lmish muayyan o'ziga xos sifat jihatdan tashkil topganligi nazarda tutiladi. SHunday birlik bo'yicha ularni baholashda, o'zlikni anglashning sababi, maqsadi o'lchamlari hamda chegaralari saqlanib qolishi mumkin. SHaxsning bu ma'nodagi sub'ektliligi o'zini o'zi anglashga nisbatan ichki ehtiyoj, motiv, talab, intilish sifatida mavjud bo'ladi va uning yuzaga kelishi insonning ijtimoiy sub'ekt tariqasida tarkib topishi zaruriyati bilan belgilanadi. Sub'ektlilikda odamning ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni va yo'li mujassamlashgan.

Sub'ektlilikda yaqqol-tarixiy davr o'z aksini topadi. SHuning uchun uning ichki mohiyati va tashqi ko'rinishi, ya'ni atributi mukammal mujassamlashgan bo'ladi. Bu ma'noda o'zini o'zi anglashning tarixiyliigi deyilganda, faqatgina o'zlikni anglash davomida hal qilinuvchi sifatlar tarixiyliigi tushunilmasdan, balki uning sub'ekti tarixiyliigi ham tushunilishi lozim. Insonni o'zini o'zi qaysi nuqtai nazardan va intilishdan kelib chiqqan holda anglashi etnik, milliy xususiyatlarga ega. SHuning uchun ham kishini o'zlikni anglashning sub'ekti orqali o'zini o'zi

bog'lash ijtimoiy-tarixiy ahamiyat kasb etadi. Inson tomonidan o'zlikni anglash jarayoni, uning vujudga kelishi, aks etish natijasi uyg'unligi inkor qilinmasdan, balki shaxs bilan uning o'zini o'zi anglashga nisbatan sub'ektivligi orasidagi aloqa inkor etiladi. Muammoga bunday munosabat mohiyatiga nisbatan bildirilmasdan, balki bu inkor shaxsning shakllanishiga taalluqliligi ko'zga tashlanadi. Oqibatda, inson oldida o'ziga xos bo'lgan o'zini o'zi anglashni belgilab beruvchi sub'ektivlikni tiklash zarurati yuzaga keladi. Zarurat esa ichki turtki (motiv), maqsad, vazifa tariqasida rol o'ynaydi. Vazifani bajarish esa inson tomonidan oldingi sub'ektivligini inkor orqali amalga oshirmasdan, balki uning keyingi kamolotini belgilovchi yangi sifatni shakllantirish tarzida namoyon bo'ladi.

Insoniy yangi sifat holati uning shaxsiy turmushdagi faolligini tahlil qilish yoki ruhiy qayta tiklanish hisoblanib, unda turmush tarzi, uning hayot kechirishi xususiyatlari aks etadi. O'zini o'zi anglashni, uning sub'ekti bilan bir davrda o'rganish, bizningcha, ruhiyat bilan ijtimoiylik o'rtasidagi munosabatlar muammosini hal qilishga qulay sharoit yaratib beradi.

Aytib o'tilgandek, birinchi kontseptual-ilmiy yondashuvda o'zini o'zi anglashning ruhiy jarayon sifatida vazifa bajarishi, insonning boshqalar to'g'risidagi bilimlari ularning unga munosabatlari o'rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. Odatda, odam o'zi haqida fikr yuritarkan, albatta, u o'zining boshqalar bilan kechadigan o'zaro munosabatlarini tahlil qiladi. Ularning samaraliligiga binoan o'z "Men"ligini yaratadi.

Psixologlarning ma'lumotlariga qaraganda, "Men"lik insonning atrof-muhit hamda shaxslararo munosabatlarida vujudga keladi. Lekin "Men"likning tarkib topishi, uning fikr yurituvchanligi ruhiyat rivoji ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Inson atrof-muhit bilan shaxslararo munosabatlar mazmunidan iborat. SHuningdek, u munosabatlar to'g'risida fikr yurita olishlik imkoniyati ifodasidir. S.L.Rubinshteyn bilan K.A.Abul'xanova-Slavskayalar ikkala asosning qaysi birisi yetakchiligi haqidagi muammoni o'ziga xos tarzda hal qilishga intiladilar. Lekin uning yechimida ong qachon va qay tarzda qanday sabablardan kelib chiqqan holda o'zini ob'ektivlashtiradi va qaysi yo'sinda o'zini o'zi anglaydi, degan masala markaziy o'rin egallaydi. O'zaro munosabatlar qoidalar va talablar doirasida kechishining zarurligi ongni o'zini o'zi boshqarishga majbur qiladi. Bunda ong o'zidagi ixtiyorsizlikni tizginlaydi, lekin tizginlash ongning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lishi ularga ta'sir ko'rsatishni tahlil qilish natijasida vujudga keladi. Tahlil qilish natijasida ijtimoiylik insonning ongiga, ruhiyatiga kirib boradi. Bunda ong o'zini o'zi anglash hamda boshqarishning manbai bo'lib qoladi. Oxir oqibatda insonning ijtimoiylashuvi deyilganida, uni ongining ijtimoiylashuvini nazarda tutadi. SHu tariqa o'zini o'zi anglashning ijtimoiylashuvdagi o'rni, roli tushuntiriladi.

SHunday qilib, o'zini o'zi anglash jarayonida ruhiyat (psixika) bilan ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) o'rtasida muttasil o'zaro munosabatlar vujudga keladi. Munosabatlarning o'zaro

muvofigligi yoki nomuvofigligi ta'sirida "Men"likning xususiyati va uning mohiyati ro'yobga chiqadi.

SHuning uchun insonda o'zini o'zi anglash maqsadga muvofiq tarkib topmas ekan, oldiga qo'yilgan vazifalarni sifatli bajara olmaydi. Irodaviy zo'r berish maqsad ob'ektiga yo'naltirilmasa, o'zini o'zi anglash muvaffaqiyati to'g'risida mulohaza yuritish ham mumkin emas. O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-harakatlarini anglashdan boshlanadi (oldin ayrim qiliqlarini, undan so'ng barcha xatti-harakatlarini butunligicha anglashlaridan boshlanadi), undan so'ng o'zlarining sifatlarini, xarakterlarini va o'z qobiliyatlarini anglashdan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o'smirlarni o'zini anglashi asosida u haqida boshqa odamlarning kattalarning (o'qituvchilar, ota-onalarning), jamoaning va o'rtoqlarining mulohazalari yotadi. Kichik yoshdagi o'smir o'ziga go'yo atrofdagi odamlarning ko'zi bilan qaraydi. Yosh ulg'ayishi bilan o'z shaxsini mustaqil tahlil qilish va baholash holatlari boshlanadi. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'smir shaxsining hamma sifatlarini ham bir vaqtni o'zida anglay boshlamaydi. Dastavval ta'lim faoliyatini bajarish bilan bog'lik bo'lgan sifatlar

(mehnatsevarlik matonat, diqqatlilik, tirishqoqlik.) anglana bosh-lanadi. Undan so'ng boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlarni ifoda-lovchi sifatlar (o'rtoqlik hissi, mehribonlik, vazminlik, qaysarlik xissi) anglanadi. Undan ham keyin o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (kamtarlik, takabburlik) anglanadi. Nihoyat shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarini ifodalovchi murakkab sifatlar, burch hissi, qadr-qimmat va vijdon xissi, maqsadga intilish xissi anglanadi. O'smirlarda o'zini anglashning muhim xususiyatlaridan biri o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj bilan shaxsning namoyon bo'lishini yetarli darajada to'g'ri tahlil qila olmasligi, o'zi xaqida yetarli darajada bilimlarga ega emasligi o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Mana shu asosda ba'zan o'smirdagi tirishqoqlik darajasi bilan uning jamoadagi xaqiqiy mavqei o'rtasida, uning o'z-o'ziga nisbatan, o'z shaxsining sifatlariga nisbatan bo'lgan munosabati bilan unga hamda uning shaxsining sifatlariga nisbatan kattalarning va tengdoshlarining muno-sabatlari o'rtasida ixtilof yuzaga keladi. A.G Kovolev adolatli ravishda ta'kidlaydiki, o'smirlarda 2ta bir-biriga qarama-qarshi ammo har ikkisi ham ayni bir vaqtda salbiy bo'lgan kechinmalarni,ya'ni boshqalardan ustunlik va boshqalardan kamlik hissini tug'dirmaslik uchun o'smir shaxsiga to'g'ri baho berish muhimdir. O'smirlarda o'zini anglashni rivojlanishinig yangi bosqichi o'ziga bir na'munani, o'ziga xos axloqiy etalonni ajratish bilan bog'liqdir. O'smir o'ziga na'muna bo'lgan etalon bilan o'zini solishtirib, o'z xatti-harakatlariga baho beradi. Mana shunday namuna bo'ladigan etalonlar o'smirning xatti-harakatlarini yo'lga sola boshlaydi. O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hisoblangan yangi xislatlarni tarkib topishi unda o'ziga xos kattalik xissining yuzaga kelishidir. O'smir bu hissiyotni o'z-

o'ziga katta yoshli odam sifatida bo'lgan shaxsiy munosabatlarni kattalar jamoasida ular hayotining to'laqonli va to'la xuquqli a'zosi sifatida yashashga tayyor ekanligini sub'ektiv tarzda ichidan kechiradi. Kattalik xissi o'smirlarda mustaqillikka va ma'lum darajada erkinlikka intilishni yuzaga keltiradi. Mana shuning natijasida ular kattalarning baholariga g'ayri tabiiy holda javob beradilar va kattalarning ularning qadr-qimmatlarini kamsitishlariga, ularning erkinliklarini inkor qilishlariga, ularning xuquqlariga yetarli baho bermasliklariga juda o'tkir reaksiya bilan javob beradilar.

2.3. IRODANI O'RGANISHNING YANGI QIRRALARI

Inson u yoki bu xususiyatlarga ega bo'lgan qaror qabul qilib, zaruriy xatti-harakat (amal)ni amalga oshirishni tushunib (anglab) tursa-da, lekin aksariyat hollarda uni bajarishga unchalik shoshilmaydi. Hatto mutaxassis psixologlar har doim ham odamlar hal qilinishi ko'ndalang turgan ehtiyojlarini qoniqtirishga, shaxsiy qarorlari va rejalarini ro'yobga chiqarish uchun hech qanday chora va tadbirlarni qo'llashni istamasliklari yoki xohishlari yo'qligini, uning sabablarini tushuntira olmaydilar.

Bu borada shunday psixologik fenomenal holatni ta'kidlab o'tish joizki, insonlar allaqachon zaruriy bilimlarni egallagan bo'lsalar-da, turmushga nisbatan shaxsiy qarashlari va e'tiqodlariga itoat etgan holda yashasalar-da, lekin ular o'z oldilarida turgan topshiriq (ish yoki vazifa)larni yechish (bajarish)ga har xil sur'atda kirishadilar, bunda ayrim qiyinchiliklarga duch kelsalar-da, ularning ayrimlari o'z harakatlarini birdaniga tugatadilar, boshqalari esa ikki baravar shijoat (kuch-quvvat) bilan urinishni davom ettiradilar. Bunday psixologik holatlarning barchasini psixika xususiyatlari bilan bog'lashga harakat qiladilar, natijada iroda to'g'risida turlicha fikr va mulohazalar vujudga keladi. Modomiki shunday ekan, bizningcha, iroda – bu shaxsning o'z xulq-atvori, faoliyati va muomalasini ongli tarzda boshqarishi bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan harakat va xulq-atvorni amalga oshirish jarayonida tashqi, ichki qiyinchiliklarni yengish uquvida ifodalanadi.

Irodaning asosiy vazifasi – o'z xulqini boshqarish, o'z faolligini ongli idora qilishdir, qachonki mo''tadil turmush sharoitida to'siqlar vujudga kelsa, faqat shundagina uning funktsional jabhasi ishga tushadi. Iroda o'z mohiyatiga ko'ra, qachonki inson o'z mayllarini boshqarishga qobil bo'lsa, u yoki bu tarzda unga shaxsiy munosabatini bildirsa, faqat shundagina vujudga kelishi mumkin.

Agarda, shaxs o'zining mayllaridan (xohishlaridan) yuqoriroq darajaga ko'tarilish uchun inson ulardan chetlashish (begonalashish) imkoniga ega bo'lishi mumkin, chunki u sub'ekt sifatida o'zini o'zi anglash, ustunlikka erishish uchun ular o'rtasida tanlov o'tkazishga tayyor holda turishi kerak. Ko'rinib turibdiki, irodaning mohiyati, vujudga kelishi, bajaradigan

funktsiyasi murakkabligi uchun unga ta'rif berish ham shunchalik mushkuldir. S.L.Rubinshteynning ta'biricha, iroda – bu ichki va tashqi to'siqlarni yengish bilan bog'liq kechadigan, shaxsning o'z xulq-atvori, faoliyati va muomalasini boshqarishdir. Bizningcha, insonning bu qobiliyati sub'ektning o'z xulqi va psixologik hodisalarni, o'zini determinatsiya hamda regulyatsiya qilishda namoyon bo'ladi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida iroda to'g'risida bir xil nazariya mavjud emas, lekin shunga qaramasdan, ko'pchilik olimlar tomonidan uning terminologik aniqligi, bir xil ma'no kasb etishligi mezonlari bo'yicha iroda to'g'risida yaxlit ta'limot yaratishga harakat qilinmoqda.

Ta'limot yaratish uchun esa ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot (tarixiylik printsipiga asoslangan holda) bosqichlariga filogenetik hamda ontogenetik nuqtai nazardan yondashish maqsadga muvofiq. Xuddi shu bois, irodani tarixiy bosqichlarga asoslanib o'rganishni bir necha davrlarga ajratish mumkin, jumladan:

1) shaxs xohishiga zid tarzda sub'ekt aqlini qo'zg'atuvchi, harakatlarni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida irodani tushunish bilan bog'liq davr; falsafa fanining idealistik oqimi (oldingi asrlarda) sifatida volyuntarizmning vujudga kelishi bilan aloqador bosqich;

2) irodani motivlar kurashi bilan bog'lashga va uni tanlash muammolarini izohlashga harakat qilingan palla;

3) maqsadga erishish uzluksiz jarayonida shaxs uchraydigan minimal qiyinchiliklar va to'siqlarni bartaraf etish mexanizmi sifatida irodaga yondashishni boshlanish fazasi kabilar.

Hozirgi davrda (XXI asrda) irodaning tabiati va muammolari to'g'risida jahon psixologiyasi fanida bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar yordami bilan kurashuvchi ikkita oqim mavjud. Mazkur oqimlardan birisi irodani motivlar va motivatsiyalar bilan almashtiradi, ularning namoyandalari uchun ayniylashtirish hech qanday jiddiy nuqsonlarga olib kelmaydi, go'yoki ular ayni bir narsa deb ta'kidlaydilar. Bu yo'nalish namoyandalarining qarashlariga mutanosib (mos tarzda) yondashilsa, "irodaga qarshi" deyilsa, demak "xohishga qarshi" ham deganidir. SHuni unutmaslik kerakki, xohish har xil kuchga (kuchlanishga) egadir. Bu holga binoan, "xohish kuchi" "iroda kuchi"ning almashtiruvchisiga aylanib qoladi. Bu bilan ehtiyoj kechinmasining kuchi to'g'risidagi tasavvur irodaviy jismoniy va psixik zo'riqish (tanglik) bo'yicha mulohazani almashtirish hodisasi yuzaga keltirilganga o'xshaydi. SHaxs faoliyati va xulqini regulyatsiya qilish (boshqarish)ning ongli hamda motivatsion usuli sifatida (tariqasida) iroda gavdalanadi, namoyon bo'ladi.

Boshqa oqim namoyandalari irodani faqat to'siq va qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq ekanligini tan oladilar, xolos. SHuning uchun oqim pozitsiyasi mohiyatiga ko'ra, "iroda" tushunchasi "iroda kuchi" atamasining aynan sinonimiga aylantiriladi. Bu tushunchalarni ayniylashtirish, identik hol deb tasavvur qilish odatiy vaziyatlarda, bizningcha, mana bunday

kechishi mumkin. Yuqoridagi mulohazaga binoan, qiyinchiliklarni yengib o'tsa, demak, bu irodasi kuchli odam, deb nomlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, "iroda kuchi" atamasi "iroda" tushunchasiga aylanib qolgan. Ushbu vaziyat (holat)da iroda faqat qiyinchiliklarni yengish sababi (negizi) deya irodaviy xatti-harakat (amal, asab tizimi funktsiyasidagi o'zgarishlar) maqsadga erishishga yo'naltirilgan xulq sifatida talqin qilinishi mumkin, hattoki, bu kezda qiyinchiliklar davom etib turgan bo'lsa ham. Bunday munosabatdan shu narsa kelib chiqadiki, ya'ni irodali yoki irodasiz (uni egallagan yoki egallamagan) sub'ekt to'g'risida tasavvur vujudga keladi. Bu o'rinda iroda "shaxs" va "xarakter" tushunchalarining tavsifi tarzida gavdalanadi.

Motivatsion oqim, yo'nalish (birinchisi) iroda to'g'risidagi muammolarni tushunishda uning sifatlarini o'rganishni e'tiborga olmaydi, ya'ni bunda iroda kuchi motiv yoki ehtiyoj kuchi bilan almashtiriladi. Ikkinchi oqimda esa shaxs irodaviy faolligi motivatsiyasini hisobga olmaydi, uni umuman siqib chiqarib tashlaydi, qolaversa, yaxlit iroda irodaviy zo'riqishning vujudga kelishi bilan ayniylashtirishga (bir narsa deb qabul qilishgan) borib yetgan. Xuddi shu boisdan, irodani boshqarishga nisbatan iroda haqidagi ma'lumotlar, motivatsiya bilan irodaviy regulyatsiya (boshqarish) o'rtasida uzilishni tan olish, tushunish qiyin bo'lgan holat sifatida qarashga loyiq, xolos. Chunki irodaning sifatlarida ro'yobga chiqishnigina iroda, deb atash yetarli emas, vaholanki, irodaviy sifatlar irodani (yaxlit holda) ishga tushirgani uchungina nomlanib qolmaydi, balki shaxsning irodasi, uning xohishi bilan ixtiyoriy, ongli namoyon bo'ladi. Xuddi shuning uchun "iroda sifatleri" tushunchasi "iroda" so'zidan kelib chiqadi, lekin aksincha bo'lishi mumkin emas, albatta. Faqatgina irodaviy regulyatsiyaga nisbatan (to'siqlarni yengib o'tish jarayonini boshqarish sifatida tushunish) irodaning yaxlit psixologik mexanizmi ekanligi haqidagi ma'lumotlar qonuniy emas aslida.

Irodaning ko'pfunksional xususiyati to'g'risida mulohaza yuritilsa, ixtiyoriy (ongli) harakatlar mutanosib tarzda shunchaki uning yordami bilan har xil bosqichlarda turlicha topshiriqlarni yechishgina emas, balki turli xususiyatli iroda sifatlarining yaqqol namoyon bo'lishi shaxsning xulqi, harakati (amali)ni o'zi boshqarish jarayonida iroda tomonidan bajariladigan har xil funktsiyalarga mos tushadi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda hozirgi zamon psixologiya fanida ilmiy kategoriya sifatida irodani tadqiq etishlik darajasini qoniqarli, deb baholash, tan olish mumkin emas, chunki jamiyat tomonidan fuqarolar oldiga qo'yiladigan vazifalarni amalga oshirishga irodasi kuchli shaxs bo'lmasa, qurbi yetmaydi. Bizningcha, fan va texnikaning rivojlanishi, axborot tizimining kengayishi, xo'jalik tizimini takomillashtirish masalalari kuchli irodali, ijodiy fikrlovchi, barkamol shaxsni tarkib toptirishni talab qiladi. Zero, zamonaviy yoshlarda interfaol usullar yordami bilan bilimlarni egallash, ma'naviyatni kengaytirish imkoniyatlari ro'yobga chiqishni, ularda mas'uliyat, fidoiylilik, vatanparvarlik his-tuyg'ularini, ijodiy izlanuvchanlik, intizomlilik, matonat, sabr-toqatlilik

sifatlarini shakllantiradi. SHuni ta'kidlash joizki, iroda to'g'risida e'lon qilingan ishlarning miqdori kamayayotganligi mavzu dolzarbligiga negiz sifatida xizmat qilishi mumkin. Agarda, psixologiyaning boshqa kategoriyalari bilan iroda qiyoslansa, tadqiqotning nazariy, eksperimental, tatbiqiy jihatlarini yuzasidan orqada qolayotganligi namoyon bo'lmoqda. SHuning uchun XX-XXI asr psixologiyasining metodologiyasi, fenomenologiyasi, tushunchaviy (definitsiya) apparati orasida iroda kategoriyasi kamtarona o'rinda ekanligi uni tadqiq qilish, shuningdek, yangi jabhalari, mexanizmlari va qonuniyatlarini ochish kerakligini taqozo etadi.

XX asrning 30-yillarida Yevropa mamlakatlari va AQSH psixologiyasida irodaning nazariy, eksperimental jihatdan tez sur'atlar bilan tadqiq qilinganligi ko'zga tashlanadi, lekin ijtimoiy madaniyatning keyingi taraqqiyot bosqichlarida iroda kategoriyasiga nisbatan qiziqish birmuncha pasayganligini ham kuzatish mumkin.

Nazariy va amaliy ma'lumotlar psixologik nuqtai nazaridan tahlil qilinishicha, hozirgi zamon psixologiyasida iroda muammosi ikki variantda tadqiq qilinmoqda. Birinchi variant o'z ichiga determinlashuv an'anaviy masalalarni qamrab oladi. Ikkinchi variant esa muammoni o'zini o'zi boshqaruv sifatida o'rganishni talab etadi. Yuzaga kelgan bunday vaziyat iroda tushunchasi mazmunini bir ma'noli tarkiblarga ajratishda, uni boshqa atamalar bilan munosabatini aniqlashda qiyinchiliklarni tug'diradi.

Psixologiyada ixtiyoriy va irodaviy regulyatsiya munosabatiga nisbatan turlicha nuqtai nazar mavjud bo'lib, bu ikki hodisaning nazariy tahlil emasligiga bog'liq. Faoliyat motivatsiyasi bilan iroda regulyatsiyasining o'zaro munosabatini tushunishda ham aniqlik yetishmaydi. Ma'lumki, insonning irodaviy zo'r berishida iroda regulyatsiyasiga qobillik, uquv namoyon bo'ladi. Biroq to hozirgacha irodaviy zo'r berishning psixologik mexanizmlari to'g'risida umumiyat tomonidan tan olingan tasavvur mavjud emas. Iroda regulyatsiyasini eksperimental o'rganilishiga qaramasdan, uni rivojlanish darajasini va shaxsning ba'zi bir irodaviy sifatlarini diagnostika qilishda ayrim uslubiy xususiyatli muammolar saqlanib kelmoqda.

Iroda kategoriyasiga oid izlanishlar quyidagi ko'rinishga ega:

- 1) Aristoteldan to I.Kantgacha oraliq davrlaridagi izlanishlar;
- 2) Djems, Meyman, Vundt, Ribo, Piaje, Ax tomonidan olib borilgan eksperimental psixologiya davri;
- 3) Sobiq Ittifoq psixologiyasi bo'yicha ma'lumotlar: Uznadze, Rubinshteyn, CHelpenov, Lazurskiy, Vigotskiy, Bojovich va boshqalar (XX asr);
- 4) XX asr o'rtalari va XXI asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar (V.P.Selivanov, SH.N.CHxartishvili, A.I.Visotskiy, V.A.Ivannikov, Ye.P.Ilyin).

Irodani psixologiyada ishlanganlik (o'rganilganlik) darajasi bizni bir qator vaziyatlarga e'tiborni qaratishga majbur etadi:

- 1) muammoning tadqiqot tarixiga;
- 2) psixologiya faniga olib kirilgan iroda tushunchasi bilan shartlangan inson xulq-atvoridagi reallikni ajratishga;
- 3) ushbu psixologik muammo bo'yicha izlanishlar rivoji tendentsiyasini tushunishga;
- 4) shaxs xatti-harakatining irodaviy regulyatsiyasini ta'minlovchi vositalarning psixologik mexanizmlarini tushuntirishga va hokazo.

Yuqorida bildirilgan psixologik mulohazalar tanlangan mavzuning dolzarbligi va ishlanganlik darajasi to'g'risida muayyan xulosa chiqarishga imkon beradi. Chunki biz irodaning tuzilishi, vujudga kelishi, rivojlanishi, takomillashuvi (barqarorlashuvi) qonunlari, bu jarayonni ta'minlovchi mexanizmlari, holatlari hamda patologiyasi to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega emasmiz. Shuningdek, bizda irodani shakllantiruvchi tashqi va ichki omillar (faktorlar), shart-sharoitlar yuzasidan umumlashgan materiallar yetishmaydi. Shu bilan birga, iroda tarkib topishining umumpsixologik, yosh davrlari, gender xususiyatlariga taalluqli ma'lumotlar ham yetarli darajada to'planmagan. Xuddi shu bois, iroda kategoriyasiga ko'pyoqlama yondashish (psixologiyaning faoliyat, xulq-atvor, muomala shakllariga asoslangan holda) orqali bir qator psixologik masalalarga ham nazariy, ham amaliy jihatdan aniqlik kiritishi mumkin.

Bizningcha, shaxs irodasiga ko'pyoqlama yondashish (faoliyatli, xulqiy, muomalaviy), uning mukammalligini, ierarxik tuzilishida (daraja, bosqich, faza xususiyatlarining ro'yobga chiqishini) uzviylikni ta'minlaydi, harakatlantiruvchi kuch mohiyatini dalillashga imkon yaratadi, shakllanish jarayonining ichki va tashqi mexanizmlari o'ziga xosligini tavsiflashga puxta negiz hozirlaydi, gender munosabatlar qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladi.

XULOSA

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: “O'zbekiston”, 2003. - 38 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. //“Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori” – Toshkent: “SHarq” nashriyot-matbaa kontserni, 1997. – 20-29 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1997. - 35 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: “O'zbekiston”, 1998. - 35 b.
6. Karimov. I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: “SHarq”, 1998. – 182 b.
7. Abdullaeva SH.A. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korrektsiyalashning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtorefati. -O'ZPFITI, 2005. -15-20 b.
8. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 5 jildlik saylanma. 4-jildi. – Toshkent: “Xalq merosi”, 1993. -300-304 b.
9. Abu Muhsin Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. Forsiydan tarjima. So'zboshi va lug'at muallifi Mahmudjon Mahdum Hasanjon Mahdum o'g'li. -T.: “Yozuvchi”, 1998. -78-b.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Abdulla Qodiriy”, 1993. -224-b.
11. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. -T.: “Yozuvchi”, 1993. -75-95-b.
12. Andreeva I.N. Predposylki razvitiya emotsional'nogo intellekta. // Voprosy psixologii. 2007, - № 5. – S.57-66.
13. Baturin N.A., Kurchanskiy N.A. Universal'naya metodika dlya izucheniya urovnya i struktury intellekta. // Voprosy psixologii. 2005. № 5. – S.131-140.
14. Borishevskiy M.I. Razvitie samoregulyatsii povedeniya shkol'nikov.// Avtoref. dis. kand. ped. nauk. -M.: 1992. – 25 s.
15. Gamezo M.V., Petrova Ye.A., Orlova L.M. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya. Uchebnoe posobie dlya studentov vsekh spetsial'nostey pedagogicheskix vuzov. – M.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2003.

16. Guskova A.V. Rol' «Modeli psixicheskogo» pri reshenii myslitel'nykh zadach. // Voprosy psixologii. 2008. № 1. S-26-35.
17. Ivannikov V.A. Psixologicheskie mexanizmy volevoy regulyatsii. – M.: 1998.
18. Иьин Ye.P. Psixologiya voli. SPb.: Piter, 2000.
19. Iskenderov J.S. Xarakterning intellektual jabhalarini o'rganish imkoniyatlari. “Xalq ta'limi” jurnali. Toshkent: 2007. №5. - B.91-94.
- 20 Iskenderov J.S. Ajdodlarimiz ta'limotida xarakter muammosining o'rganilishi. // Ijtimoiy-falsafiy fanlar: nazariya va amaliyot (ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami). –Toshkent: 2008. - B. 98-101.
- 21 Iskenderov J.S. Irodaviy xususiyatlar shakllanishida oilaning roli. // Oilaning dolzarb muammolari: ustuvor vazifalar va rivojlanish istiqbollari (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). –Toshkent: 2008. –B.148-149.
- 22 Mamatov M.M. Inson xakteri va uning shakllanishi. Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 1977.
- 23 G'oziev E.G'. Komil insonning psixologik tavsifi. Toshkent: “Universitet”, 2006.
- 24 G'oziev E.G'. Psixologiya muammolari. T.: “Universitet”, 1999. -134 b.
- 25 G'oziev E.G'. , Xolmuhamedov M., Ibrohimov X. Psixologiya metodologiyasi. T.: 2002, -51 b.